



O'ZBEK TILINING GERMANİYADA O'RGANILISHI TARIXIDAN (XX asrgacha bo'lgan davr)

*Jo'liboy ELTAZAROV**

Annotatsiya

Germaniyadagi turkologiya va turkiy tilshunoslik uzoq davr mobaynida dunyo turkologiya fanining karvonboshilaridan biri bo'lib keldi. Bu mamlakatda 15-asrdan e'tiboran Turkologiyaga va turkiy tillarga doir izlanishlar olib borildi. Prussiyadagi Leypsig, Berlin shaharlari va qator nemis universitetlarida 18-19 asrlarda turkologiya maktablari vujudga keldi. Hieronymus Megiser, Heinrich Julius von Klaproth, Wilhelm Schott, Otto fon Byotlink, W.W.Radloff kabi atoqli nemis turkologlari amalga oshirgan salmoqli tadqiqotlar Germaniya va Rossiyada turkiy tilshunoslik fanini yuqori saviyaga ko'targan edi.

Kalit So'zlar: Germaniya, Turkologiya, Turkiy Tilshunoslik, O'zbeklar, O'zbek Tili, Uyg'ur Tili, Hieronymus Megiser, Heinrich Julius Von Klaproth, Wilhelm Schott, Otto Fon Byotlink, W.W.Radloff.

ALMANYA'DA ÖZBEKÇENİN ARAŞTIRILMASI TARİHİ (XX. Yüzyıl Öncesi)

Özet

Almanya'daki Türkoloji ve Türk dil bilimi uzun zaman diliminde dünya Türkolojisinin önde gelen merkezlerinden biri olmuştur. Bu ülkede 15. yüzyıldan itibaren Türkoloji ve Türk dilleri üzerine çalışmalar yapıldı. 18. ve 19. yüzyıllardaki Türkoloji ekolleri Prusya'daki Leipzig, Berlin ve bazı diğer Alman üniversitelerinde kuruldu. Hieronymus Megiser, Heinrich Julius von Klaproth, Wilhelm Schott, Otto Fon Byotlink, W. Radloff gibi önde gelen Alman Türkologlar tarafından yapılan önemli araştırmalar, Almanya ve Rusya'daki Türk dil bilimini daha üst seviyelere taşıdı.

Anahtar Kelimeler: Alman, Türkoloji, Türk Dil Bilimi, Özbekler, Özbek, Uygur, Hieronymus Megiser, Heinrich Julius Von Klaproth, Wilhelm Schott, Otto Fon Byotlink, W. Radloff.

FROM HISTORY OF RESEARCHES OF UZBEK LANGUAGE IN GERMANY (Before the 20th Century)

Summary

Turkology and Turkish linguistics in Germany have long been one of the leading teams in the world of Turkology. In this country, Turkology and Turkish languages have been studied since the 15th century. The schools of Turkology in the 18th and 19th centuries were founded in Prussia, in Leipzig, Berlin cities and some other German universities. Important research by leading German Turkologists such as Hieronymus Megiser, Heinrich Julius von Klaproth, Wilhelm Schott, Otto Fon Byotlink and W. Radloff brought the Turkish linguistics in Germany and Russia to higher levels.

* Prof. Dr., Semerkand Devlet Üniversitesi, Özbekistan, el-mek: juliboy2@gmail.com

Key Words: German, Turkology, Turkish Linguistics, Uzbeks, Uzbek, Uighur, Hieronymus Megiser, Heinrich Julius von Klaproth, Wilhelm Schott, Otto Fon Byotlink, W. Radloff.

Germaniyadagi turkologiya va turkiy tilshunoslik uzoq davr mobaynida dunyo turkologiya fanining karvonboshilaridan biri bo'lib keldi. Nemislarning turkiylar bilan ilk tanishuvi XI-XIV asrlarda salb yurishlari davrida yuz bergan. Bu davrda bu yurish va urushlarga qatnashgan harbiylar yozgan safar xotiralarida asosan Anadolu va Yaqin Sharqdagi o'g'uz turklari va turkmanlari haqida ma'lumotlar keltirilgan edi (Gül, 2006: 56-117).

XIV asrdagi Qipchoq turklarining tili haqidagi muhim manba «Kodekus Kumanikus» (*Codex Cumanicus*) asaridagi ma'lum bir qismning qipchoqcha-turkcha lug'at ekanligi ma'lum. Eski qipchoqlarning nemislar bilan ilk o'rta asrlardagi lisoniy-etnik aloqalarining aksi bo'lgan bu muhim tomon haligacha turkologlar va germanologlar tomonidan mufassal tekshirilmagan (*Das türkische ...*, 2001).

Germaniyadagi ilk turkolog sifatida tarix sahifalariga muhrlangan olim Hieronymus Megiserdir (1554-1619). Binobarin, Hieronymus Megiserning 1612-yilda Leypsigda bosilib chiqqan «*Institutionum linguae turcicae libri quator. Quorum*» asari Germaniyadagi ilk turkiy til grammatikasi ham edi. Lotin tilida yozilgan bu kitob quyidagi bo'limlardan tashkil topgan edi:

I. *Continet Partem Isagoges Grammaticae Turcicae Priorem, de orthographia* (Turkiy til haqidagi umumiy tushuncha va yozuv)

II. *Turc-Arabica. Verò Isagoges Grammaticae* (Turkcha va Arabcha, Turkchadagi arabcha unsurlar grammatikasi)

III. *Complectitur diversa linguae Turcicae Exercitia, et duas Proverbiorum* (Turkchadagi so'z turkumlari, so'zlarning etimologiyasi, ot va fe'l)

IV. *Turcicorum Centurias. Dictionarium est Latino-Turcicum et vicißim Turcico-Latinum*, (Turkcha-lotinja, lotinja-turkcha lug'atlar) (Stein, 1987: 41-56).

Hieronymus Megiserning bu kitobida jami 2500 turkiy so'z izohlangan va ularning grammatik va nutqda qo'llanilish xususiyatlari ochib berilgan.

XVII asrda Germaniya (Prussiya)da Leypsig sharqshunoslik va turkologiyaning markaziga aylangan edi. Leypsigdagi dastlabki turkologik tadqiqotlar sharqshunos Jon Kristian Kladius (*Johann Christian Clodius*, 1676-1745) tomonidan amalga oshirilgan. Uning «*Compendiosum Lexicon LatinoTurcico-Germanicum*» (1730) nomli asari lotinja-turkcha-nemischa lug'at shaklidir.

Jon Kristian Kladius 1729-yilda Istanbulda bosma yo'l bilan nashr etilgan ilk kitoblaridan biri «Sayyoh tarixi» asarini 1731-yilda nemischaga o'girib nashr etgani ham xarakterlidir. Bu balki yangi tarixda musulmon o'lkalarida yaratilgan ilmiy asarning birinchi marta G'arb mamlakatida nashr etib, tarqatilgani namunasidir: *Tarih-i seyyah hoc est: Chronicon peregrinantis seu historia ultimi belli Persarumcum Aghwanis gesti, a tempore primae eorum in regnum Persicum irruptionis ejusque occupationis, usque ad Eschrefum Aghwanum, Persiae regem recenti continuata, ex codice Turcico, in officina typographica recentis Constantinopolitana impresso, versa acnotis quibusdam illustrata (Cum Tabula imperatorum familiae Othomanicae, ex codice manuscripto Turcico, in fine adjuncta*, Lipsiae, 1731, 108 s) (Stein, 1987: 41-56).

Germaniyadagi birinchi professional turkolog Heinrich Julius von Klaprothdir (1783-1835). Avvalboshda o'z faoliyatini til, tarix, etnografiya va geografiya sohalaridagi ishlari bilan boshlagan Heinrich Julius von Klaproth Sankt-Peterburg Fanlar akademiyasiga ishga taklif

etilgandan keyin Sibir va Kavkazdagi xalqlar va tillarga o'z e'tiborini qaratgan. U Kavkaz va Sibirga Fanlar akademiyasining ekspeditsiyalari bilan borgach, u yerda to'plagan ma'lumotlarini ushbu asarlarida jamlagan: («*Reise in den Kaukasus und nach Georgien in den Jahren 1807 und 1808*», I-II, Halle-Berlin, 1812-1814; *Asia Polyglotta*, 1823). Keyingi asar bevosita Sibir va O'rta Osiyodagi turkiy tillar tadqiqi bilan bog'liq. Boshqird, qozoq, qirg'iz, yoqut va chuvash tillari bo'yicha kuzatishlar bayon qilingan ushbu asarda, chuvash tilining turkiy tillar oilasiga mansubligi xususidagi fikr birinchi marta bayon qilingan (Comparasion de la langue..., 1828:237-246).

Germaniyadagi turkologiyaning asoschilaridan biri Vilhelm Skotdir (Wilhelm Schott, 1802-1889). Turk olimi Ahmet Temir Vilhelm Skotning Oltoy va Urol-Oltoy nazariyasining asoschilaridan biri ekanligini ta'kidlab quyidagicha yozadi: «Vilhelm Skotning asarlari bilan Urol-Oltoy tillari va ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar haqidagi mavzu jiddiy ilmiy muammo sifatida o'tganila boshladi» (Temir, 1991: 22). Vilhelm Skot tarafidan tovush parallellari (o'xshashliklari) haqidagi nazariya Oltoy tillari nazariyasining tamal toshlarini qo'yib berdi. Masalan u Turkcha $z =$ Chuvashcha r ; Turkcha $\zeta =$ Chuvashcha l ekanini ko'rsatib bergan edi. Keyinchalik bu tovush parallellari Oltoy til oilasining barcha a'zolari uchun umumiy holat ekani isbotlandi. Olimning turkiy tillar tadqiqiga bag'ishlangan asarlarining asosiylari quyidagilar: «*Versuch über die tatarischen Sprachen*, 1836; *Altäische Studien*, 1-5, 1860-72; *Die Cassiasprache*, 1859; *Die finnische Sage von Kullerwo*, 1852; *Über den Buddhismus im Hochasien und in China*, 1846; *Älteste Nachrichten von Mongolen und Tataren*, 1846; Schott, *De lingua Tschuwaschorum*, 1841».

Vilhelm Skotning «*Über die jakutische Sprache*» (1843) asari yoqut tilining birinchi ilmiy grammatikasi bo'lib hisoblanadi (Eren, 1998)

Julius Theodor Zenkerning (öl. 1884) «*Türkisch-arabisch-persisches Handwörterbuch*», I-II, Leipzig, 1866-1876 va «*Allgemeine Grammatik der Türkisch-Tatarischen Sprache von Mirza A. Kasem-Beg*», Leipzig, 1848 kabi asarlari XIX asrning ikkinchi yarimida turkiy tillar bo'yicha Germaniyada yaratilgan muhim tadqiqotlardan hisoblanadi. U tarafidan tayyorlangan va turkologlar o'rtasida «Zenker lug'ati» sifatida bilinuvchi «*Türkisch-arabisch-persisches Handwörterbuch*» Markaziy Osiyo turkiy tillari, jumladan, eski o'zbek adabiy tili («chig'atoycha») bo'yicha tadqiqot olib borgan izlanuvchilar uchun muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qilgan.

Otto fon Byotlink (Otto von Böhtlingk, 1815-1904), o'z faoliyatini hindolog sifatida boshlagan bo'lsa-da, keyinchalik Sankt-Peterburg Fanlar akademiyasi taklifi bilan Rossiyaga kelgach, turkiy tillar bilan faol shug'ullandi. Uning «*Über die Sprache der Jakuten Grammatik, Text und Wörterbuch*», I-II (St. Petersburg, 1848-1851) nomli asarida yoqut tilining eng qadimiy tillardan biri sifatida turkiy tillar o'rtasida alohida o'ringa ega ekanligi hamda u qadimgi turkiy tillarning o'ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini o'zida saqlab qolganligi xususida qimmatli kuzatishlar bayon qilingan (Botlingk, 2005: 435).

Germaniya va Rossiyadagi turkologiya fanining taraqqiyotida hamda nemis turkologiyasining tajriba hamda tadqiqot uslub-yo'nalishlarini rus turkologiyasiga transfer qilishda katta o'rin tutgan mashhur nemis olimi Vilhelm Radlofning (rus. Василий Васильевич Радлов, nem. Friedrich Wilhelm Radloff, 1837-1918) hayoti va asarlari alohida diqqatga sazovordir*.

* Fridrix Vilhelm Radloff (Radlov Vasiliy Vasilyevich) (1837.05.01, Berlin - 1918.12.05, Petrograd) — rus sharqshunos, turkiyshunos, etnograf va tarjimon. Peterburg FA a'zosi (1884), falsafa fanlari d-ri (1858). Berlin universitetini tugatgan (1858). Peterburg FA Osiyo muzeyi (1885-90), Antropologiya va etnografiya muzeyi direktori (1894-1918). 1858 yildan umrining oxirigacha Rossiyada yashagan Radlofning hayoti va ilmiy faoliyati shartli ravishda 3 davrga bo'linadi: Oltoy davri (1859-71) da Radloff Oltoy va G'arbiy Sibirdagi turkiy xalqlar tillarini o'rgangan, bu xalqlarning tillari, folklori, etnografiyasi va arxeologiyasiga oid materiallar to'plab, ularni dastlabki ishlovdan o'tkazgan. Qozon davrida (1871-84) uning turkiy tillar fonetikasiga bag'ishlangan yirik asari —

Vilhelm Radlofning turk biografi Ahmet Temir uning hayoti va asarlari xususida yozgan kitobida olimning turkologiya fani oldidagi xizmatlarini quyidagicha izohlaydi: «V. Radlofning yangi, o'рта va qadimgi turkiy tillarga doir tadqiqotlarida joyiga qarab oz yoki ko'proq xatoliklar uchraydi, bulardan qat'iy nazar turkologiya tarixining 1860-yillardan to 1918-yilgacha bo'lgan davrini «Radlof davri» deyishimiz uchun bir monelik yo'qdir» (Temir, 1991: 7).

1858-yildan 1918-yilgacha, ya'ni vafotiga qadar Vilhelm Radlof Rossiyada (Barnaul, Altay va Sankt-Peterburg) yashadi, Barnaul gimnaziyasida va Sankt-Peterburg Fanlar akademiyasiga qarashli Osiyo muzeyi (1885-90), Antropologiya va etnografiya muzeyida (1894-1918) ishladi.

V. Radlofning sharqshunos va turkolog sifatida shakllanishida Vilhelm Skotning katta ta'siri bo'lgan, deb yozadi Ahmet Temir. Aynan ana shu ta'sir tufayli Radlof «Markaziy Osiyo va Sibirning kam o'rganilgan tillarini o'zining tekshiruvlari sohasi qilib oldi. Turkiy tillar bilan bir qatorda mo'g'ulcha, manjucha va xitoy tillarini puxta o'rgangan olim qadimgi yahudiy tili, arabcha va forscha darslarini ham olgan, bu tillarni puxta o'zlashtirgan edi» (Temir, 1991: 21-22).

V. Radlofning Germaniya va Rossiyadagi faoliyatlari davrida amalga oshirgan tadqiqotlari natijasida Sibir va Markaziy Osiyo tillari (uyg'ur, oltoy, teleut, shor, kumandin, tuva, qozoq, qirg'iz, xakas, G'arbiy Sibir tatarlari tillari) va bu tillarda gaplashuvchi xalqlarning madaniyati, folklori, adabiyoti masalalari bo'yicha quyidagi ilmiy asarlari e'lon qilingan va ular 130 yildan beri o'z ilmiy ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda: «*Proben der Volksliteratur der turkischen Stamme Südsibirien*» (*Образцы народной литературы тюркских племен, живущих в Южной Сибири и Джунгарской степи*), *тексты и немецкий перевод; Санкт-Петербург, 1866-1896, 7 т; «Vergleichende Grammatik der nordlichen Turksprachen. Th.I. Phonetik»*. (*Сравнительная грамматика северных тюркских языков. Т.I. Фонетика*), *Лейпциг, 1882-1883; «Wörterbuch der Kinai-Sprache»* (*Словарь кинайского языка*), *Санкт-Петербург, 1874; Анализ болгарских числительных имен, в известиях Албекри и др. авторов (1878); «Die Lautalternation und ihre Bedeutung für die Sprachenentwicklung»* (*Гармония гласных и её значение для развития языков; в «Verhandlungen des funften internationalen Orientalisten Congress»*), *Берлин, 1882; «Zur Sprache der Komanen»* (*О языке куманов; в «Internationale Zeitschrift für allgemeine Sprachwissenschaft»*), *Лейпциг, 1884-1885; «Versuch eines Wörterbuches der Türkdialecte»*, (*СПб., 1888 и сл.*) / *Опыт словаря тюркских наречий. т. I-IV. СПб., 1888-1911; «Die altturkischen Inschriften der Mongolei»* (*Древнетюркские надписи Монголии*), *вып. 1 и 2, СПб., 1894, 1899; «Observations sur les Kirghis»* (*Заметки о киргизах*), *Париж, 1864; Мифология и мирозерцание жителей Алтая («Восточное обозрение», 1882, № 7 и 8, 1883, № 8); «Ethnographische Übersicht der Turkstamme Sibiriens und der Mongolei»* (*Этнографический обзор тюркских племён Сибири и Монголии*), *Лейпциг, 1884; Aus Sibirien (Из Сибири)*, *Лейпциг, 1884 (русский перевод, 1989); «Das Schamanentum und seine Kultus»* (*Шаманство и его культ*), *Лейпциг, 1885; Сибирские древности (в «Материалах по археологии России, издаваемых Императорской археологической комиссией»*), *Санкт-*

"Shimoliy turkiy tillarning chog'ishtirma grammatikasi. 1-qism. Fonetika". Leypsigda nemis tilida chop etilgan (1882-83). Peterburg — Petrograd davri (1884-1918) da Radlof nomini jahonga tanitgan 4 jildli 24 kitobchadan iborat "Turkiy lahjalar lug'ati tajribasi" ("Opit slovarya tyurkskix narechiy") dunyoga keldi. Ushbu fundamental asar 40 dan ortiq turkiy tilda uchraydigan 70 ming lug'aviy birlikni qamrab olgan.

Radlof 1860-70 yillardagi Oltoy, Sibir, Qozog'iston, O'рта Osiyo ekspeditsiyalarining ishtirokchisi, 1891 yildagi O'rxun ekspeditsiyasining rahbari, 1898 yildagi Turfon ekspeditsiyasining tashkilotchisi bo'lgan, birinchilardan bo'lib turkiy O'rxun-Yenisey yozuvini o'qigan; 11-asr yozma yodgorligi bo'lmish "Qutadg'u bilig"ning Vena kutubxonasidagi uyg'ur yozuvli nusxasining faksimilesini va nemischa tarjimasini nashr etish bilan (1891-1910) ushbu asarni o'rganishga asos solgan.

Peterburg, 1888; «Atlas der Altertümer der Mongolei» (Atlas mongolischer Altertümer), Санкт-Петербург, 1892; «Proben der Volkslitteratur der türkischen Stämme Süd-Sibiriens; Aus Sibirien Atlas der Altertümer der Mongolei» (1892-1896); «Die alttürkischen Inschriften der Mongolei» (1894-1895).

Yuqoridagi asarlardan so'ngi ikkitasi turkologiya, turkiy tillar va o'zbek tili uchun juda ahamiyatlidir. Ma'lumki, V.Radlof qadimgi turkiy-runik va qadimgi turkiy-uyg'ur obidalarining topilishi, o'qilishi, nashr etilishi, turli tillarga tarjima qilinishi va ilmiy o'rganilishiga juda katta hissa qo'shgan olimdir. U 1894-yilda O'rxun-Enasoy yodgorliklarini deshifrovka qilib o'qishga erishdi, 1895-1902-yillar davomida 15 jilddan iborat «O'rxun ekspeditsiyasi materiallari to'plami»ni («Сборник трудов Орхонской экспедиции», Санкт-Петербург, 1895-1902) e'lon qildi, 40 ta eski turkiy yodnomalarning tarjimasini va ilmiy tadqiqini amalga oshirdi. Shuningdek, qadimgi uyg'ur yodnomalaridan «Oltin yoruq»ni o'qidi va tarjima qildi. Bu kashfiyot va tadqiqotlarning barchasi hozirgi turkiy tillarning taraqqiyoti bosqichlarini belgilash, turkiy tillardagi so'z va qo'shimchalarning etimologiyasiga aniqlik kiritish, bu tillarning qiyosy-tarixiy fonetikasi va grammatik qurilishiga doir izlanishlarni yangi bosqichga ko'tarishda asos vazifasini bajardi (Reşetov, 2002:95-101).

XIX asrning oxirida Yevropalik va Rossiyalik olimlarning Osiyo qit'asining ichki qismlarida qadimgi xalqlarga va hozirgi xalqlarning ajdodlariga aloqador bo'lgan madaniy obidalarni kashf etishi, bu qadimgi obida hamda madaniyat yodgorliklari ustida olib borgan tadqiqotlari Germaniyadagi sharqshunos va turkologlarni ham harakatga keltirdi. Shu sababli 1899-yilda Rimda bo'lib o'tgan Sharqshunoslar Kongressida qatnashchilar diqqatiga havola qilingan Markaziy Osiyoda qadimgi sivilizatsiyalarga aloqador topilmalar xususidagi ilmiy axborotlardan keyin Germaniyadagi ilmiy doiralar Sharqiy Turkiston shaharlariga va, ayniqsa, Turfan shahriga ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirishga kirishdilar.

Germaniyalik olimlar 1902-1914-yillar davomida jami to'rt marta Sharqiy Turkistonga safar qildilar: 1902-1903-yillar orasida A. Grunvedel (A. Grünwedel) rahbarligida, 1904-1907-yillar orasida A.fon le Kok (A.von le Coq), 1908-1912-yillarda A.Grunvedel va 1913-1914 yillari yana A.fon le Kok rahbarligida ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etildi.

1-ekspeditsiya. Rahbar: prof. A.Grünwedel; Ishtirokchilar: doktor G.Huth, Th.Bartus. Yo'nalish: G'ulja - Urumchi - Turfan vohasi (Xocho, Bözäklik, Sängim, Tuyuq) 1902-yil, mart - 1903-yil, topilgan obidalar: Manixey yozuvlari, uyg'ur obidalari. Shimoliy Ipak Yo'li (Toqsun-Xorashaxr-Qumturaning yaqinidagi Quva-xarobalari) - Gilziq - Aksu - Tumshuq - Maralboshi - Qashqar. Topilgan obidalar - 46 quti.

2-ekspeditsiya. Rahbar: doktor A.V. Le Coq; Ishtirokchi: Th.Bartus. Yo'nalish: Urumchi - Turfan vohasi (Xocho va uning atrofidagi tumanlar, Yar-Xoto, 1904-yil, noyabr - 1905-yil, avgust; Hami-Turfan, 1905-yil, avgust) - Shimoliy Ipak Yo'li - Koshg'ar (1905-yil, oktyabr); dekabr oyida 3-ekspeditsiya bilan birlashgan). Topilgan obidalar: 103 ta kitob, asosan rasmlar (Bözäklik), juda ko'p matnlar - Suryonicha Xristian matnlari, Sog'd, Manixey dini yozuvlari, Uyg'ur Budda matnlari.

3-ekspeditsiya (1906-yil iyunda 2-ekspeditsiya bilan birlashtirilgan). Rahbar: prof. A. Grünwedel; Ishtirokchilar: A. V. Le Coq, H. Pohrt, Th.Bartus. Yo'nalish: Kashg'ar - Tumshuq (1906-yil, yanvar.) - Qizil - Quva - Qumtura (1906-yil, ibodatxona rasmlari) - Qizildagi G'or rasmlari (1906-yil, fevral - may) Buddist ma'budi majmuasi va Sho'rchuqning G'orlari (Budda rasmlari - Turfan vohasi (1906-yil, iyul) - Urumchi - Hami - Tuyuq (1907-yil, yanvar) - Sho'rchuq (Fevral - mart, 1907) - Turfan, Urumchi orqali qaytish (1907-yil, aprel). Topilgan obidalar - 118 quti.

4-ekspeditsiya. Rahbari: doktor A. V. Le Coq; Ishtirokchi: Th.Bartus. Kashg'ar - Quva, Qizil (1913, iyun - sentyabr) - Kirish, Simsim - Kumtura (1913-yil, noyabr) - Tumshuq (1913

yil yanvar - 1914 yil) - Koshgar. Topilgan obidalar - 75-80 kilogrammli 156 ta quti (xususan, sak va sanskrit tillarida Tumshuqdan olingan matnlar) (Turfan Studies, 2017).

Ekspeditsiyalar yakuniga ko'ra quyidagi yodnomalar matnlar shaklida nashr etilgan: (*Bericht über archäologische Arbeiten in Idikutschari und Umgebung im Winter 1902-1903*); *Altbuddhistische Kultstätten in Chinesisch-Turkistan* (1912); *Chotscho* (1913); *Auf Hellas Spuren in Ostturkistan* (1926); *Bilderatlas zur Kunst und Kulturgeschichte Mittelasiens* (1925); *Von Land und Leuten in Ostturkistan* (1928); *Die Buddhistische Spätantike in Mittelasiens*, 1-5-jildlar; 6-7-jildlar Ernst Valdshmidt bilan hamkorlikda); *Uigurica* (4 jild), *Manichaica* (3 jild) va *Türkische Turfantexte* (10 jild).

Sharqiy Turkistondan topilgan turkiy (uyg'ur) tilidagi obidalar turli yillarda germaniyalik G. Hazay, Peter Zeyme, K.Roborn, G.Kara, Sh.Tekin va S.Tezjan kabi olimlar tomonidan ilmiy o'rganildi: *G. Hazai-P. Zieme: Fragmente der uigurischen Version des «Jingaggjing mit den Gathas des Meister Fu», Nebst Anhang von T.Inokuchi, Berlin, 1971*; *K. Röhrborn: Eine uigurische Totenmesse. Text, Übersetzung, Kommentar, Berlin, 1971*; *S. Tezcan: Das uigurische Insadi-Sutra, Berlin, 1974*; *P. Zieme: Manichaisch-türkische Texte. Texte, Übersetzung, Anmerkungen, Berlin, 1975*; *G. Kara-P. Zieme: Fragmente tantrischer Werke in uigurischer Übersetzung, Berlin, 1976*; *G. Kara-P. Zieme: Die Uigurischen Übersetzungen des Guruyogas «Tiefer Weg» von Sa-skya Pandita und der Manjusrinamasamgiti, Berlin, 1977*; *Ş. Tekin: Maitrisimit Nom Bitig, Transliteration und deutsche Übersetzung der uigurischen Version eines Werkes der buddhistischen Vaibhasika-Schule, Berlin, 1980*; *P. Zieme: Buddhistische Stabreimdichtungen der Uiguren, Berlin, 1985.*; *P. Zieme: Altun Yaruq Sudur. Vorworte und das erste Buch, Turnhout, 1996* (Turfan Studies, 2017).

1990-yilda ikki nemis davlati (GDR va GFR) birlashganidan keyin Germaniyadagi uyg'ur obidalarini jiddiy tizimga solindi, ularning elektron variantlari yaratildi va keng ilmiy jamoatchilikka havola qilindi (Turfan Studies, 2017).

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish kerakki, nemislarning turkiylar bilan ilk tanishuvi XI-XIV asrlarda yuz bergan. Germaniyada turkologiya sohasiga tamal toshini qo'ygan olim Hieronymus Megiserning bo'lib, uning bir necha bo'limlardan tashkil topgan turkiy til grammatikasi asari tahsinga loyiq. Bundan ko'rinadiki, turkiy tillarga bo'lgan qiziqish, e'tibor qadim-qadimga borib taqaladi. Johann Christian Clodiusning tadqiqotini, birinchi professional turkolog Henrich Julius von Klapprothning amalga oshirgan ishlari hozirgi kunga qadar e'tirof etib kelinmoqda.

Turkiy tillarni butun Germaniyada, qolaversa, Rossiyadagi taraqqiyotida Vilhelm Radlofning asarlari alohida diqqatga sazovor. Olimning juda ko'plab ilmiy asarlari asarlari e'lon qilingan va ular 130 yildan beri o'z ilmiy ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. Asarlar bugungi kundagi o'zbek tili grammatikasi qoliplariga tushmasa-da, o'z davrining noyob ilmiy xazinasi bo'lib kelgan.

Germaniyalik olimlar Sharqiy Turkistondagi qadimgi Uyg'ur obidalarini o'rganish uchun to'rt marta safar qilganligi aslida 20-asr boshlarida Yevropa sharqshunosligining odatdagi taraixiy asarlarni talon-taroj qilish amaliyoti esa-da, 1990 yilda ikki nemis davlati birlashgandan keyin Germaniyadagi uyg'ur obidalarini jiddiy tizimga solindi va ularning elektron variantlari yaratilib, ilmiy jamoatchilikka havola qilindi. Bugun bu obidalarini Internet tarmog'i orqali o'rganishning imkoniyati mavjud.

Bularning barchasi 20-asr boshlarigacha Germaniyada kuchli turkologiya maktabi shakllangani va nemis turkologlari eng qadimgi zamonlardan beri boshqa turkiy tillar qatori o'zbek tilini tadqiq etib kelganini ko'rsatadi.

Adabiyotlar

GÜL, B (2006). *Almanya'da Türkoloji Çalışmaları (Tarihî Gelişim, Türkologlar, Dergiler)* //Türkbilig, 2006/11: 56-117> www.turkbilig.com/pdf/200611-262.pdf (December, 2017).

Das türkische des 16. Jahrhunderts, Nach den Aufzeichnungen des Florentiners Filippo Argenti (1533). Göttingen, 2001.

STEIN, H. (1987). *Zur Geschichte türkischer Studien in Leipzig (von 1612 bis ins 20. Jahrhundert)*, Germano-Turcica, Bamberg.

Comparasion de la langue des Tschouvaches avec les idimes Turks, JA, 1828.

TEMİR, A. (1991), *Türkoloji Tarihinde Wilhelm Radloff Devri, Hayatı-İlmî Kişiliği-Eserleri*, Ankara: TDK Yayınları.

REŞETOV A. M (2002). *Akademik V. V. Radlov, vostokoved i muzeyevod (Osnovniye etapi deyatelnosti)* // Radlovskiye chteniya, 2002. Materialı godičnoy nauchnoy sessii. – SPb.

Internet manbalar

BOTLİNGK (2005). *Bol'shaya rossiyskaya entsiklopediya*, Moskva, 2005. -S. 435. - (Bol'shaya rossiyskaya ensiklopediya : [v 35 t.] / gl. red. Y. S. Osipov; 2004-2017, t. 3). -ISBN 5-85270-331-1.

Turfan Studies > <http://turfan.bbaw.de/projekt-en> (December, 2017).